



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTROPOSENTRIK IBORALAR: LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK JIHATLARNING QIYOSIY TADQIQI

Malika Ibadullayevna Xolmatova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti,
"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasida assistenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19877366>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 5-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 6-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 28-aprel 2026 yil

KEY WORDS

antroposentrizm, antroposentrik iboralar, leksik tahlil, grammatik tuzilma, frazeologiya, qiyosiy lingvistika, lingvokulturologiya, semantik motivatsiya, pragmatika, til va tafakkur.

ABSTRACT

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralarning leksik-grammatik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi tilshunoslikdagi zamonaviy antroposentrik paradigmaning rivojlanishi hamda inson omilining tildagi in'ikosi bilan belgilanadi. Antroposentrizm tamoyiliga ko'ra, til nafaqat aloqa vositasi, balki insonning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va madaniy tajribasi aks etadigan murakkab tizimdir. Maqolada inson tana a'zolari (somatizmlar), ruhiy holati va xarakter xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar hamda metaforik konstruksiyalar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki tildagi iboralarning leksik tarkibi, grammatik shakllanish qonuniyatlari va funksional-uslubiy xususiyatlari o'rganilib, ularning milliy-madaniy o'ziga xosliklari ochib beriladi. Xulosa qismida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda antroposentrik birliklarning nutqiy samaradorlikni oshirishdagi roli asoslanadi.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma tilni inson tafakkuri, ongiy faoliyati va ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til tizimi insonni markaziy referent sifatida namoyon etadi va borliqni idrok etish jarayonlari lingvistik birliklarda aks etadi. Shu nuqtayi nazardan, antroposentrik iboralar - insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xususiyatlarini ifodalovchi barqaror yoki yarim barqaror birikmalar — tilning konseptual va semantik tuzilmasida muhim o'rin egallaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralarni qiyosiy o'rganish kognitiv lingvistika, semasiologiya, frazeologiya va lingvokulturologiya kesishgan nuqtada amalga oshiriladi. Xususan, adyektiv iboralarda inson omilining ifodalanishi konseptual metafora nazariyasi, semantik proyeksiya, baholovchanlik va aksiologik komponent kabi ilmiy tushunchalar orqali izohlanadi. Til birliklarining semantik strukturasi "inson" konsepti markaziy kognitiv model sifatida namoyon bo'lib, u ko'pincha somatik leksika (yurak, ko'ngil,

ko'z, qo'l va boshqalar) hamda sezgi, harorat, fazoviy parametrlar kabi tajribaviy domenlar orqali realizatsiya qilinadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralar hozirgacha asosan frazeologik yoki umumiy semantik jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, ularning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini kompleks qiyosiy tahlil qilish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, adyektiv iboralarda antroposentrizmning strukturaviy modellashtirilishi, sintaktik funkcionalligi va konnotativ-semantik yuklamasi masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi — ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralarni leksik-semantik hamda grammatik jihatdan qiyosiy o'rganish, ularning konseptual asoslari va tipologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar belgilandi:

antroposentrik iboralarning semantik maydonini aniqlash va ularni tematik guruhlarga ajratish;

adyektiv iboralarning strukturaviy modellari va derivatsion mexanizmlarini tahlil qilish; somatik va metaforik komponentlarning konseptual motivatsiyasini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida baholovchi (evaluativ) va pragmatik funksiyalarning qiyosiy tavsifini berish.

Nazariy jihatdan mazkur tadqiqot antroposentrik yondashuv, konseptual metafora nazariyasi va qiyosiy-tipologik lingvistika tamoyillariga tayanadi. Metodologik asos sifatida deskriptiv, qiyosiy, komponent tahlili, semantik interpretatsiya va kontekstual-pragmatik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Kutilayotgan natijalar ingliz va o'zbek tillarida inson konseptining lingvistik reprezentatsiyasi, adyektiv iboralarning semantik strukturalari hamda ularning grammatik realizatsiyasidagi umumiy va milliy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu tariqa, mazkur tadqiqot antroposentrik iboralarni o'rganishda qiyosiy-lingvistik yondashuvni chuqurlashtirish hamda til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni yanada kengroq talqin qilishga xizmat qiladi.

Antroposentrik yondashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lingvistik tadqiqotlarda yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Kognitiv lingvistika vakillari tilni inson tafakkuri va tajribasi bilan uzviy bog'liq holda talqin etdilar. Xususan, konseptual metafora nazariyasi doirasida inson tajribasi til birliklarining shakllanishida asosiy omil sifatida e'tirof etildi.

Frazeologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar iboralarning semantik yaxlitligi, obrazlilik va milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. O'zbek tilshunosligida ham inson omiliga asoslangan iboralar, ayniqsa, tana a'zolari bilan bog'liq frazeologik birliklar yuzasidan ilmiy izlanishlar mavjud. Ingliz tilshunosligida esa idiomatik birliklarning grammatik va semantik xususiyatlari keng tadqiq qilingan. Shunga qaramay, ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik iboralarning leksik-semantik va grammatik jihatlarini kompleks qiyosiy asosda o'rganish masalasi yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

MATERIAL VA USULLAR

Antroposentrik yondashuv, konseptual metafora va frazeologik birliklarning inson omili bilan bog'liqligi bir qator nufuzli tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. Avvalo, kognitiv lingvistika doirasida inson markazli yondashuv nazariy asoslarini George Lakoff va Mark Johnson ishlab chiqqan [3. B. 48]. Ularning konseptual metafora nazariyasi til birliklarining inson tajribasi, tana a'zolari va sezgi faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Antroposentrizmning umumlingvistik tamoyillari va inson omilining til tizimidagi o'rni masalasi rus tilshunosligida Yuri Apresyan tomonidan tadqiq etilgan. U til semantikasida insonning "naiv dunyo manzarasi" (naivnaya kartina mira) tushunchasini ilgari surgan

[2.B.122]. Lingvokulturologiya va madaniy konseptlar nazariyasi doirasida inson va til munosabatini V. Teliya hamda V. Karasik keng yoritgan [4.B.56]. Ular frazeologik birliklar va baholovchi semantikaning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilganlar. Frazeologiya sohasida ingliz tilidagi turg'un birikmalarni tizimli o'rganish ishlari A. Kunin tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u ingliz frazeologiyasining strukturaviy-semantik tasnifini ishlab chiqqan [5.B.6] O'zbek tilshunosligida esa frazeologik birliklar va obrazli ifodalarning semantik xususiyatlari Shavkat Rahmatullayev, A. Mamatov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular o'zbek tilidagi frazeologizmlarning milliy tafakkur va madaniyat bilan bog'liqligini ko'rsatib berganlar [7. B. 12]. Filologiya fanlari doktori, professor M.Djusupov esa quyidagi fikrlarni bildiradi. "Antroposentrik paradigma tilshunoslikda inson omilini markaziy konsept sifatida talqin etadi va til birliklarini inson tafakkuri hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi." [11. B. 40]. B. Yo'ldoshev esa frazeologik birliklarning semantik tarkibini o'rganar ekan, ularning ma'no ko'chishiga asoslanganligini ta'kidlaydi [10. B. 96]. Aynan adyektiv frazeologizmlar ko'p hollarda inson xarakteri, hissiyotlari va holatlarini ifodalashda keng qo'llaniladi. Frazeologizmlarning semantik barqarorligini tahlil qilgan V.V. Vinogradov ularni ko'chma ma'no hosil qiluvchi birliklar sifatida izohlaydi. Adyektiv idiomalar – ma'lum bir ma'no yoki his-tuyg'ularni bildirish uchun sifat so'z turkumidan tarkib topgan frazemalar yoki iboralardir. Bu idiomatik iboralar odatda shaxsni, vaziyatni yoki hodisani tasvirlash uchun sifatning majoziy yoki metaforik ishlatilishini o'z ichiga oladi. Sifat komponentli idiomalar kundalik xayotimizda keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha og'zaki yoki yozma nutqga rang, urg'u yoki o'ziga xos ohang qo'shish uchun ishlatiladi. Adyektiv iboralarga ingliz tilida "coach potato," "black sheep," "green with envy," "blue in the face," kabi ayrim namunalar, o'zbek tilida "oq ko'ngil", "terisi qalin", "ichi qora", "qichiq gap" va "ko'ngli bo'sh" kabilarni kiritishimiz mumkin [9. B. 173].

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik, xususan, adyektiv iboralarni qiyosiy-lingvistik hamda lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks xarakterga ega bo'lib, unda tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tipologik, semantik-kognitiv va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Birinchi bosqichda deskriptiv metod asosida ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik sifatlilik iboralar tanlab olindi va ularning leksik tarkibi hamda grammatik tuzilishi tizimlashtirildi. Materiallar izohli va frazeologik lug'atlar, badiiy adabiyot namunalari hamda zamonaviy matn korpuslari asosida shakllantirildi. Tanlangan birliklar insonning jismoniy belgisi, ruhiy holati, xarakter xususiyati va ijtimoiy mavqeini ifodalash mezoniga ko'ra saralandi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy-tipologik metod yordamida ikki til materiallari o'rtasidagi strukturaviy va semantik o'xshashliklar hamda tafovutlar aniqlashtirildi. Bu jarayonda adyektiv iboralarning sintaktik modeli (masalan, sifat + ot yoki ot + sifat konstruksiyalari), ularning grammatik moslashuvi va funksional vazifasi o'zaro taqqoslandi.

Semantik-kognitiv tahlil jarayonida iboralarning metaforik motivatsiyasi, konseptual asoslari hamda baholovchi (evaluativ) komponenti o'rganildi. Ayniqsa, inson tajribasiga asoslangan metaforalar — tana a'zolari, ranglar, harakat va sezgi bilan bog'liq tasviriy birliklar — konseptual maydon doirasida tahlil qilindi. Bu yondashuv antroposentrizm tamoyilining adyektiv iboralarda qanday namoyon bo'lishini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, kontekstual va pragmatik tahlil usuli orqali iboralarning nutqdagi qo'llanish xususiyatlari, ekspressivlik darajasi hamda kommunikativ vazifasi o'rganildi. Mazkur yondashuv iboralarning faqat tizimli birlik sifatida emas, balki real kommunikativ jarayondagi funksional vosita sifatidagi ahamiyatini ochib berdi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar majmui antroposentrik adyektiv iboralarni har tomonlama — leksik, grammatik, semantik va madaniy jihatdan — tahlil qilish imkonini

yaratdi hamda ingliz va o'zbek tillaridagi mazkur birliklarning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik, xususan, adyektiv iboralar leksik-semantik va grammatik jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikkala tilda ham sifat iboralar insonning jismoniy belgisi, ruhiy holati, xarakteri va ijtimoiy maqomini ifodalashda markaziy semantik rol o'ynaydi. Bunda antroposentrizm tamoyili til birliklarining konseptual asosida namoyon bo'ladi. Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilidagi *"cold-hearted"*, *"warm-blooded"*, *"strong-willed"*, *"narrow-minded"* kabi adyektiv iboralar insonning psixologik va axloqiy sifatlarini tana a'zolari yoki fiziologik jarayonlar orqali metaforik konseptuallashtiradi. Masalan, *"cold-hearted"* birikmasida *"heart"* (yurak) komponenti emotsional markaz sifatida talqin qilinadi, *"cold"* sifati esa empatiya yetishmasligini ifodalaydi. Bu yerda konseptual metafora modeli asosida semantik ko'chish yuzaga keladi. Adyektiv frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlarning semantik mustaqilligi darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi birikmalarda bu mustaqillik to'liq yo'qoladi, ya'ni ularning mazmuni butunlay frazeologik tizim doirasida idrok etiladi. Masalan, ingliz tilidagi *a cold fish - (tuyg'usiz, sovuqqon odam) - "cold"* so'zining literal ma'nosi emas, balki xarakterni bildiruvchi metaforik ma'nosi qo'llanilgan bo'lsa, *a hard nut to crack - (og'ir odam yoki mushkul muammo) - "hard"* va *"nut"* so'zlari mustaqil semantik yuklamasiz obrazli ma'no kasb etadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikkala tilda ham somatik komponentlar (yurak, ko'ngil, ko'z, qo'l va boshqalar) yuqori frekventlikka ega bo'lib, ular insonning ichki dunyosini tasvirlashda asosiy semantik yadro vazifasini bajaradi. Biroq ingliz tilida *"heart"* komponenti ustunlik qilsa, o'zbek tilida *"ko'ngil"* va *"dil"* leksemalari kengroq qo'llanadi. Bu milliy-kognitiv model farqlarini aks ettiradi.

Ingliz tilidagi antroposentrik iboralar tilshunoslikning eng boy qatlamlaridan biri bo'lib, ularda inson omili, uning tana a'zolari, his-tuyg'ulari va hayotiy tajribasi asosiy o'rin tutadi. Akademik nuqtai nazardan, bu iboralar olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Quyida ingliz tilidagi antroposentrik iboralarni misollar bilan ko'rib chiqamiz: 1. Somatik (Tana a'zolari bilan bog'liq) iboralar. Antroposentrizmning eng yaqqol namoyon bo'lishi somatizmlardir. Inson dunyoni o'z tana a'zolari orqali idrok etadi, shuning uchun tana qismlari ko'pincha mavhum tushunchalarni ifodalash uchun metafora bo'lib xizmat qiladi.

To be the "eye" of something - markaziy nuqta. Bu yerda inson ko'zi butun tananing markaziy va eng sezgir qismi sifatida olingan. Akademik nutqda bu ibora inqiroz yoki tartibsizlikning markazini ifodalaydi. Misol: *"The eye of the storm."*

To lend a hand - yordam bermoq. Qo'l - inson faoliyati va yordamining asosiy quroli. Bu yerda metonimiya usulidan foydalanilgan (qo'l butun insoniy ko'makni ifodalaydi). Misol: *"The government decided to lend a hand to small businesses."*

2. Intellektual va ruhiy holatni ifodalovchi iboralar. Insonning aqliy faoliyati va hissiyotlari bilan bog'liq iboralar uning ichki dunyosini tavsiflashga xizmat qiladi.

To be in two minds - Ikkilanmoq. Bu ibora inson ongining bo'linishi yoki tanlov oldidagi ikkilanishini sonlar orqali va psixologik jihatdan tasvirlaydi. Misol: *"She was in two minds about accepting the job offer."*

Cold shoulder - Sovuq munosabat. Tana harorati, sovuqlik hissiy munosabatga ko'chirilgan. Bu ijtimoiy rad etish yoki e'tiborsizlikni ifodalovchi antroposentrik metaforadir. Misol: *"The proposal was given the cold shoulder by the committee."*

3. Ijtimoiy mavqe va xarakterni ifodalovchi iboralar. Antroposentrizm insonning jamiyatdagi o'rnini va uning individual sifatlarini ham qamrab oladi.

A big fish in a small pond - Kichik joydagi nufuzli shaxs. Insonning nufuzi va ta'siri hayvonot olami va atrof-muhit nisbati orqali o'xshatish qilingan, lekin asosiy diqqat markazida insonning ijtimoiy statusi turadi. Misol: *"In his local town, he is a big fish in a small pond."*

Heart of gold - Ochiq ko'ngil, saxovatli. Insonning ichki qadriyati eng qimmatbaho metal - oltin bilan qiyoslanadi. Yurak esa inson his-tuyg'ularining markazi deb hisoblanishi antropotsentrik qarash mahsulidir. Misol: *"Despite his rough exterior, he has a heart of gold."*

Ingliz tilidagi antropotsentrik iboralarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bu birliklar shunchaki bezak emas, balki kognitiv mexanizmdir. Ular metaforik ko'chish orqali jismoniy tana qismlaridan mavhum ijtimoiy tushunchalarni ifoda etadi. Shuningdek linguokulturologik jihatdan ingliz xalqining inson qadr-qimmati, mehnati va hissiyotlariga bo'lgan madaniy qarashlarini aks ettiradi. Nutqning ta'sirchanligini oshiradi va murakkab psixologik holatlarni qisqa, tushunarli tasvirlar orqali yetkazadi.

Antroposentrik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, til birliklari inson tajribasi, hissiyoti va ijtimoiy qarashlari asosida shakllanadi. Inson o'z atrofidagi voqelikni idrok etishda o'zining jismoniy va ruhiy tajribasiga tayanadi. Shu sababli frazeologik birliklar ko'pincha inson tanasi, ruhiy holati yoki kundalik hayot tajribasi bilan bog'liq metaforalar asosida yuzaga keladi. Bunday metaforik modellar til egalarining dunyoqarashi va madaniy tafakkurini aks ettiradi.

Pragmatik jihatdan bu iboralar nutqda ekspressivlikni oshiradi, kommunikativ ta'sir kuchini kuchaytiradi hamda milliy mentalitetni aks ettiradi. Ular nafaqat informativ, balki emotsional va baholovchi funksiyani ham bajaradi. Shu sababli adyektiv frazeologizmlar badiiy adabiyot, publitsistik matnlar va og'zaki nutqda keng qo'llaniladi. Bunday birliklar nutqning obrazlilikini kuchaytirib, tilning estetik imkoniyatlarini boyitadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik adyektiv frazeologizmlar insonning xarakteri, psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvorini tasvirlashda muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Ular inson markazli tafakkur mahsuli sifatida shakllanib, til egalarining dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Har ikkala tilda ham bu iboralar umumiy konseptual asosga ega bo'lsa-da, ularning grammatik qurilishi, sintaktik qo'llanishi va semantik realizatsiyasida muayyan tipologik farqlar mavjud. Ingliz tilida sifatli frazeologik birliklar atributiv va predikativ pozitsiyada nisbatan erkin qo'llansa, o'zbek tilida ular ko'proq predikativ vazifada namoyon bo'ladi. Bu esa har ikki tilning grammatik tizimi va frazeologik modellarining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Shuningdek, frazeologik birliklarning semantik tarkibida umuminsoniy metaforalar bilan bir qatorda milliy-madaniy komponentlar ham muhim o'rin egallaydi. Umuminsoniy tajribaga asoslangan metaforalar turli tillar o'rtasida semantik universallikni ta'minlansa, milliy mentalitet va madaniy an'analar esa semantik differentsiallikni yuzaga keltiradi.

Demak, antroposentrik adyektiv iboralar til tizimida inson markazli tafakkurning lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'lib, ular leksik-semantik, grammatik, pragmatik hamda lingvokulturologik qatlamlarda murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega. Ularni qiyosiy o'rganish nafaqat frazeologiya va kognitiv lingvistika rivoji uchun, balki turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi konseptual o'xshashlik va farqlarni aniqlashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik frazeologik birliklarda adyektiv frazeologizmlar markaziy rol o'ynaydi va inson markaziy konseptining leksik-semantik ifodalanishida ustunlik qiladi. Bunday frazeologizmlar inson xarakteri, ruhiy holatlari, ijtimoiy rollari va estetik baholarga bog'liq bo'lib, ular frazeologik tizimda semantik motivatsiya va evaluativ komponent orqali yuqori darajada ifodalanadi. Adyektiv frazeologizmlar, boshqa turdagi frazeologik birliklarga nisbatan, inson bilan bog'liq

tushunchalarni konkret va abstrakt semantik qatlamlarda uyg'unlashtiradi, bu esa ularning pragmatik va kommunikativ salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, ularning lingvokultural komponenti milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, adjektiv frazeologizmlarda antroposentrik tamayilning ustunligi, til va kognitsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtiradi, frazeologik tizimning stilistik va funksional integratsiyasini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, adyektiv frazeologizmlarni o'rganish nafaqat leksik-semantik va grammatik tahlil, balki pragmatika, lingvokulturologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun ham metodologik ahamiyatga ega. Tadqiqotning natijalari qiyosiy lingvistika va tarjima nazariyasi uchun yangi ilmiy asoslarni yaratadi, tilshunoslik amaliyotida antroposentrik frazeologik birliklarni aniqlash, talqin qilish va tarjima qilish jarayonlarini yanada samarali qilishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1963. – 78 с
2. Apresyan, Y. D. Osnovy semantiki: teoreticheskiye osnovy issledovaniya znacheniya slova. – Moskva: Nauka, 1995.
3. Johnson, M., Lakoff, G. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Karasik, V. I., Teliya, V. V. Lingvokulturologiya i kognitivnaya semantika. – Moskva: Flinta, 2001.
5. Kunin, A. I. Strukturno-semanticheskiye tipy frazeologizmov angliyskogo yazyka. – Moskva: Nauka, 1979.
6. Kunin, A. V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. – Dubna, 2005. – S. 331–488.
7. Rahmatullayev, S. O'zbek frazeologiyasi: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: Fan, 2007.
8. Xolmatova, M. I. Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, №12. – P. 1391–1397.
9. Xolmatova, M. Adjectival idiom: an analysis of usage, origins and cultural significance // Ilm sarchashmasi. – 2023. – B. 172–178.
10. Yo'ldoshev, B. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar va milliy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
11. Джусупов, М. Антропоцентрические пословицы как лингвоконтрастивная и лингвометодическая проблема // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2022. – №5 (46). – Б. 37–52.
12. Маматов, А. Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеология норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.